

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNI HARBIY- VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DOLZARBLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19727487>

Xaitov Bahodir Tursunovich

*Quruqlikdagi qo'shinlar instituti Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasida
katta o'qituvchisi p.f.f.d., (PhD), dotsent*

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda yoshlar tarbiyasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv davrida milliy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tobora oshib bormoqda.

Kalit so'zlar

globallashuv, yoshlar, yoshlar tarbiyasi, milliy g'oya va mafkura, axborot.

Аннотация

В этой статье говорится, что в сегодняшнюю эпоху, когда информационные технологии стремительно развиваются, воспитание молодежи приобретает первостепенное значение. В эпоху глобализации потребность в национальной идее и идеологии возрастает.

Ключевые слова

глобализация, молодежь, воспитание молодежи, национальная идея и идеология, информация.

Annotation

In this article, youth education is becoming extremely important in a time when today's information technology is booming. In the era of globalization, the need for national ideology and ideology is growing.

Keywords

globalization, Youth, Youth Education, National idea and ideology, information.

Bugungi axborot texnologiyalari tobora rivojlanib borayotgan globallashuv sharoitida mamlakat fuqarolarini, xususan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning, xususan, harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ko'rinib turibdiki, hayotimizga kirib kelayotgan hodisalarning qamrovi ham, yo'nalish va maqsadlari ham, shakli va vositalari ham xilma-xil. Ularni dabdurusdan anglash, tushunish va tahlil qilish juda mushkul jarayondir. Hodislarni qabul qilish yoki "o'tkazib yuborish" uchun insondan o'ziga yarasha iqtisodiy, diniy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, ma'rifiy madaniyat va dunyoqarash talab qilinadi. Ayniqsa, yoshlarning bu boradagi dunyoqarashi va bilimi shakllanish jarayonida ekanligini inobatga olsak, ularning faoliyatida bu jarayon bilan bog'liq xatoliklar bo'lishi tabiiy ekanligi namoyon bo'ladi. Bundan ta'lim muassasalarida, xususan, harbiy ta'lim muassasalarida yoshlarga globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati, uning o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari, hodisalarga xolis, to'g'ri baho berish ko'nikmalarini shakllantirish borasida maxsus kurslar tashkil qilish bugungi kunning obyektiv zaruriyati ekanligi anglashiladi.

Globalashuv shunday jarayonki, unga passiv munosabatda bo'lgan jamiyat har doim yutqazadi. Bu jarayonda kuzatuvchi yoki kirib kelayotgan yot g'oya va ta'sirlardan himoyalalanuvi maqomida qolish mumkin emas. Balki jamiyatimizga har xil yo'llar va vositalar bilan kirib kelayotgan yot, hatto vayronkor g'oyalarga qarshi o'zimizning milliy g'oyamizni, mafkuramizni, qadriyat va an'analarimizni, boy madaniy me'rosimizni, turmush tarzimizni dunyo hamjamiyatiga targ'ib qilish bilan javob berishimiz zarur. Zero, bizning zaminimizda yetishib chiqqan buyuk allomalarning ilm-fan, din, san'at va harbiy sohalardagi erishgan yutuqlari asrlar davomida butun dunyo ma'naviyaiga katta ta'sir o'tkazib kelgan. Abu Nasr Forobiyning falsafa rivojiga, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamaxshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek kabilarning jahon fani rivojiga, Ismoil Buxoriy, at Termiziy, Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviylarning hadis, kalom, fiqh ilmlari va tasavvuf ta'limoti rivojiga, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Boburlarning harbiy san'at rivojiga qo'shgan olamshumul hissalarini butun dunyo e'tirof etadi. Shunday ekan, bizning jamiyatimiz azaldan dunyo ma'naviy va ma'rifiy, mafkuraviy va g'oyaviy yangilanishlarining iste'molchisigina emas, balki bu jarayonlarning peshqadami, yaratuvchilari qatorida bo'lib kelgan.

G'oyaviy bo'shliq mavjud joyda yot ta'sirlarning kirib kelish jarayoni kuzatiladi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy merosimiz, mustaqillik yillarida yaratilgan milliy mafkuramiz jamiyatimizda g'oyaviy bo'shliq mavjud emas, deyishimizga asos bo'ladi. Ammo yoshlarning milliy mafkuramizni to'la anglab yetmasligi ularning tafakkurida mafkuraviy bo'shliqni yuzaga keltirishi mumkin. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: "bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech

shubhasiz, uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi" [1-12], deb ta'kidlagan edi.

Demak, jamiyatimizga kirib kelayotgan yangiliklarni saralashimiz uchun biz avvalo o'zimizning ma'naviy ahkomlarimizni, milliy mafkuramizni puxta o'zlashtirishimiz, uning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishimiz zarur. Demak, yoshlarni milliy mafkuramiz dasturi doirasida tarbiyalash, ajdodlarimizning madaniy merosi bilan qurollantirishimiz, ularning bu boradagi dunyoqarashi va bilimni kengaytirishimiz globallashuv jarayonida yot ta'sirlardan ishonchli himoyalashning kafolatidir.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash juda muhim vazifadir.

Mintaqamiz va dunyodagi vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Milliy xavfsizligimiz, tinch va osoyishta hayotimizga nisbatan taxdid va xatarlar kuchaymoqda.

Shu bois hushyorlik va ogohlikni oshirish, o'zaro hamjihatlik va birdamligimizni mustahkamlash, har qanday tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo'lib yashash hayotning o'tkir zaruratiga aylanmoqda" [2-258].

G'arb dunyosida yuzaga kelgan "Ochiq jamiyat" nazariyasi tarafdorlari Genri Bergson, Karl Popper, Jorj Soros va boshqalar o'z qarashlarini shaxsiy manfaatlarning ustuvorligi bilan izohlaydilar. Buning negizida G'arbona falsafaning negizi hisoblangan manfaatparastlik va egoizm yotadi. Ammo sharqona yashash tarzi ko'proq jamoaviylikni, hamjihatlikni yoqlaydi. Bizning jamiyatimizda tarbiya borasida jamoatchilik nazorati kuchli. Jamoatchilik nazorati uyat, andisha, yuzxotir, hurmat kabi tuyg'ularni tarbiyalaydiki, bu tuyg'ular insonlarni tubanlikdan asraydi, umume'tirof etgan meyorlarga amal qilib yashashga undaydi.

Umuman, globallashuv juda murakkab jarayon bo'lib, uning salbiy tomonlari bilan birga ijobiy jihatlari ham mavjud. Globallashuv jarayonining ijobiy tomonlari sifatida davlatlarning ko'p tomonlama manfaatli hamkorliklarini, milliy madaniyatlarning yaqinlashuv jarayonini tezlashtirishini, rivojlanishning yangi imkoniyatlarini yaratishini aytishimiz mumkin. Globalistlar ushbu hodisaning ijobiy jihatlari ko'proq iqtisod bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladilar. Ammo "...globallashuv iqtisodiy jabhagagina tegishli hodisaday tuyulsa-da, xalqaro maydondagi siyosiy-iqtisodiy inqirozlar tabiiy ravishda muayyan hududdagi aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotiga jiddiy salbiy ta'sir o'tkazayotgani, pirovardida, maishiy-axloqiy tutumlarga putur yetib, xalqona ibora bilan aytganda,

ko'zi ochlik boshlanayotgani hayotning hech bir sohasi globallashuv iskanjasidan chetda qolmayotganini ko'rsatadi" [3-16].

Darhaqiqat, oila va mahalla sharqona demokratik institut sifatida yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Jamiyatda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda bu institutning ahamiyati, shubhasiz. Yoshlarni vatanparvar, milliy an'ana va qadriyatlarimizga sodiq qilib tarbiyalashda oila va mahalla borasida olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish, tarbiya masalasiga jamiyat va davlat siyosati darajasidagi masala sifatida qarash zarur. O'zbek ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat "Oila" risolasida "Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat etmas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi" deb ta'kidlaydi. Jamiyatda barkamol avlod tarbiyasi masalasi falsafa, jamiyatshunoslik, pedagogika, adabiyot kabi fanlarning o'rganish obyekti ekan, bu masalaning negizida, avvalo, axloqiy barkamollik turishini esdan chiqarmasligimiz kerak. Zero, axloqan barkamol, vatanparvar va keng dunyoqarashli insonlarga jamiyatdagi jarayonlarga ongli munosabatda bo'la oladi. Chunki axloqiy tamoyillarimizga tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda axloqiy barkamollikgina muqarrar tanazzuldan asrovchi vosita sifatida qaralmoqda.

Globalashuv jarayonida milliy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tobora ortmoqda. Chunki milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga tashqi ta'sirlar kuchayib borayotgan hozirgi vaziyatda bizning eng samarali vositamiz ham aslida milliy g'oya va mafkuramizdir. Bu jarayonda milliy g'oya va mafkuramizning eng muhim ijtimoiy funksiyalaridan biri - milliy o'zlikni himoya qilish funksiyasi namoyon bo'ladi. Milliy g'oya va mafkuramizning mazkur funksiyasi to'laqonli ro'yobga chiqishi uchun fuqarolarimiz, xususan, yoshlar ongiga milliy g'oya va mafkuramiz bilim, ko'nikma va malaka sifatidagina emas, balki e'tiqod darajasida singdirishimiz zarur bo'ladi. Agar fuqarolarimiz ongida shu e'tiqodni to'laqonli shakllantira olsak, ma'naviyatimizga tahdid solayotgan yot ta'sirlardan kafolatli himoyalana olamiz, deyishimiz mumkin.

Bugungi kunda "yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning muammolarini o'rganib, hal qilish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va sportga jalb etish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratishimiz zarur" [2-259].

Darhaqiqat, milliy g'oya va mafkuramizni chuqur ma'naviy ildizi, amalga oshirish mexanizmlari va bugungi zamon talablariga javob beruvchi xususiyatlari bilan anglash uni to'laqonli tushunishimizga yordam beradi. Xalqimizning milliy madaniy merosi hamda ezgu insonparvar g'oyalardan oziqlanuvchi milliy g'oya va mafkuramizni yoshlar va aholi ongiga singdirish orqali uning o'zligimizni himoya qilish funksiyasini ro'yobga chiqarish imkoniyati yaratiladi. Ammo bu jarayon

ancha murakkab bo'lib, buni shartli ravishda uchta bosqichga bo'lish mumkin: 1. Milliy g'oya va mafkuramizni targ'ib qilish bosqichi; 2. Milliy g'oya va mafkuramizni anglash bosqichi; 3. Milliy g'oya va mafkuramizga nisbatan e'tiqod bosqichi. Bu uchala bosqich bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning amalga oshishi jamiyat a'zolarida har xil kechadi. Ayni paytda jamiyat fuqarolari mazkur bosqichlarga bog'liq ravishda uch toifaga ajraladi: 1-toifa – milliy g'oya va mafkura haqida tasavvurga ega bo'lmagan yoki yetarli ega bo'lmaganlar; 2-toifa – milliy g'oya va mafkurani anglagan, aqlan tushunganlar; 3-toifa – esa milliy g'oya va mafkuramizga ishonuvchi, unga og'ishmay amal qiluvchi vatanparvar insonlar. Bu toifalar jamiyat rivojlanishining barcha davrlarida mavjud bo'ladi. Maqsad esa birinchi va ikkinchi toifadagi insonlarning uchinchi toifa insonlarga aylantirish bo'lishi lozim. Bu esa, albatta, olib borilajak tizimli ishlar natijasida sodir bo'ladi.

Asosiy maqsadimiz yoshlarni ma'naviy yetuk, jismonan baquvvat, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxslar etib tarbiyalash shu jamiyatda yashayotgan har bir insonning muqaddas burchiga aylanmog'i lozim. "Barcha bo'g'indagi hokimiyat organlari rahbarlari qo'shinlarning kundalik hayotida, harbiy shaharchalar barpo etish va ularning infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy xizmatchilarda g'urur, sadoqat va vatanparvarlik tuyg'usini, jangovarlik ruhi va istalgan paytda Vatan himoyasiga tayyorlik hissini tarbiyalashda faol ishtirok etishi shart" [2-325].

Globallashuv axborot tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Chunki globallashuvning har qanday ko'rinishlari axborot vositasida amalga oshadi. Shunday ekan, bugungi kunda mamlakatlar o'rtasida axborot dunyosida o'z munosib o'rnini egallashga nisbatan qattiq kurash ketmoqda. Endilikda axborot vositasida muayyan jamiyatda mavjud qonun-qoidalarni va butun dunyo e'tirof etgan umuminsoniy qadriyatlar va tushunchalarni ma'lum maqsad atrofida birlashgan ayrim guruh va jamoalarning manfaatlariga xizmat qiluvchi o'ziga xos yangi talqinlarini yuzaga chiqarishning, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, diniy va boshqa bir qancha qarashlarning targ'ibotchisiga aylanib ulgurdi. Buning natijasida, insoniyat taraqqiyotining ayni pallasida axborotning omma ongiga ta'siri va uning salbiy oqibatlari jamiyatning jiddiy muammolaridan biriga aylanib bormoqda.

Shunday bir jarayonda har bir mamlakat axborot xavfsizligi sohasida o'z siyosatini belgilab olishi zarur. Xususan, davlatimizda axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik bazasi shakllantirilmoqda, bu borada ommaviy axborot vositalarida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda, xalqimizning, xususan, yoshlarning fikri va qarashlarini o'zgartirishga, g'arazli maqsadlarni targ'ib qilishga qaratilgan internet saytlariga cheklovlar o'rnatilgan. Ammo, bizningcha, butun dunyoda fikr, ong va intellektni egallashga qaratilgan

o'ziga xos tarzdagi "urush" - "axborot xuruji" va uning salbiy oqibatlariga qarshi kurashish uchun amalga oshirilayotgan bu chora-tadbirlar yetarli emas. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun yana quyidagi ishlarni amalga oshirish talab qilinadi:

1) axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish, xususan, alohida qonun hujjati qabul qilish masalasini ko'rib chiqish;

2) milliy axborot makonimizni aholining qiziqishini inobatga olgan holda jarayonlarni obyektiv va pozitiv yorituvchi mahalliy va xorijiy axborotlar bilan muntazam to'ldirib borish: milliy kontent muammosi;

3) xalqimizning, xususan, yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini o'stirish, undagi har qanday axborotni tafakkur va tahlil qilib, so'ng xulosa chiqarishga o'rgatishimiz zarur;

4) mamlakatimiz to'g'risida noto'g'ri, bir taraf lama axborot tarqatuvchi har qanday xorijiy axborot vositalari faoliyatiga qonun doirasida chek qo'yish, bu kabi axborotlari uchun ularning javobgarligini oshirish va tarqatilgan axborotlarning bir taraf lama yoki noto'g'ri ekanligini mutaxassislar ishtirokida xalqimizga o'z vaqtida yetkazish;

5) ta'lim muassasalarida, xususan, harbiy ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta'minlash, xususan, axborot xurujlari, uning shakl va ko'rinishlari, maqsadi va salbiy oqibatlari borasida maxsus kurslar o'tilishini ta'minlash;

6) milliy g'oya, mafkura, ma'naviyat, vatanparvarlik kabi tushunchalar targ'iboti borasida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik bilan davom ettirish.

Umuman, bugungi globallashuv davrida axborot tushunchasining mazmun-mohiyati o'zgardi. Hozirgi zamon va makonda bizga bog'liq bo'lmagan holda harakat qiluvchi "axborot xuruji" atalmish qurol yuzaga keldiki, bu qurol vositasida endi inson ongiga egalik qilish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu salbiy illatdan xalqimizni, xususan, yosh avlodni himoya qilish, ularda "axborot xuruji" ga qarshi immunitetni shakllantirish har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: "Men uyimning deraza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman".¹ Shunday ekan, bunday sharoitda milliy g'oya va vatanparvarlik tarbiyasi mamlakatimizni,

jamiyatimizni “toza havo” bilan ta’minlash va ayni paytda, “dovullar” dan saqlash omili sifatida maydonga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2016.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2021.
3. Toshboyev O., Kelajak qayg‘usi yoxud globalizatsiya jarayoni //Tafakkur, 2007, №1, 16-bet.
4. Rajabov H.I. “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari T.: “Fan va texnologiya” 2020.- B-209.
5. Xaitov B.T., “Axborot xurujlarining yoshlar tarbiyasiga ta’siri”. Zirhli Qalqon ilmiy-axborot jurnali № 3 (7) 2021 dekabr, 221-225 betlar.
6. Xaitov B.T., “Mamlakat xavfsizligini ta’minlashda globallashuv omili”. Zirhli qalqon ilmiy-axborot jurnali № 1 (10) 2022 yil mart, 358-363 betlar.